



BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA OILAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

G‘aniev D.G‘.

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti O‘simliklarni ximoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti dekani, dotsent

Tayanch so‘zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar, hamkorlik mexanizmi, omillar, ta‘lim va tarbiya.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, духовно-нравственные ценности, механизм сотрудничества, факторы, образование и обучение.

Key words: family, family values, spiritual and moral values, cooperation mechanism, factors, education and training.

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, oilaviy kadriyatlarining ahamiyatini kuchaytirish, nomoddiy madaniy merosimizning gumanistik missiyasini tarbiya jarayoniga chuqurroq singdirish, bo‘lajak qishdoq xo‘jaligi mutaxassislarida intellektual va ma‘naviy kapitalni shakllantirishga karatilgan davlat siyosati yoshlarni ma‘naviy - axlokiy tarbiyalash maqsadini amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, bo‘lajak qishloq xo‘jalik mutaxassislarini oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini oila - oliy ta‘lim muassasasi hamkorlik mexanizmi asosida rivojlantirish zarurati aktuallashmoqda. Natijada, uzluksiz ta‘limning har bir bo‘g‘inida ta‘lim oluvchilarni baxtli oila modeli talablari va mezonlariga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatning kichik modeli sifatida oila ijtimoiy yo‘nalganlikning shakllanishida muhim omil xisoblanadi, chunki aynan oilada ijtimoiy qoidalar ilk bora tushuntiriladi, boshqa insonlarni anglash boshlanadi va jamiyatning madaniy kadriyatlariga amal qilinadi. Ijtimoiy ensiklopediyada esa quyidagi ta‘rifni uchratish mumkin: “Oila – maishiy hayot va o‘zaro mas‘uliyat orqali

bog‘langan insonlarning nikoh yoki qarindoshlik munosabatlariga asoslangan birlashmasi bo‘lib, ijtimoiy tuzilmaning eng muhim qismidir”.

Oila o‘zida katta ijtimoiy va tarbiyaviy imkoniyatlarni mujassam qiladi:

Oilaning ijtimoiy imkoniyatlari –bu uning jamiyat rivojlanishiga va shakllanishiga, jamiyat oldida turgan muammolarni yechishga qo‘shishi mumkin bo‘lgan xissasi xisoblanadi. Ijtimoiy imkoniyatlar oilaning iqtisodiy-xo‘jalik va ma‘naviy-psixologik funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy institut sifatida oilaning imkoniyatlari ota-onalar tomonidan shakllangan va amal qilingan qadriyatlarining farzandlar tomonidan o‘zlashtirilishi va keyingi avlodga yetkazilishi tushuniladi.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati – bu oiladagi farzandlarning xar tomonlama rivojlanishini ta‘minlovchi oilaviy muhit, oilaning hayot tarzi, ma‘naviy-amaliy faoliyatidagi imkoniyatlari kabi omillar va shartlarni o‘z ichiga oluvchi majmua hisoblanadi.


Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, oilaning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarining tarbiyaviy-faoliyat (texnologik) darajasi – bu bola tarbiyasida ota-onaning pedagogik imkoniyatlari amalga oshirishini ta‘minlovchi vosita.

U quyidagilarda ko‘rinadi:

ota-onaning obro‘sida;

avlodlar o‘rtasida ma‘naviy-tashkiliy aloqalar;

oilaviy munosabatlarda;



1.2-rasm. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari



Pedagogika fanida “Oilaning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatining ijtimoiy-madaniy darajasi” degan tushuncha keng qo‘llaniladi, unda ota-onaning nimalarga egaligi va o‘z farzandiga nimalarni bera olishi, uning qanday manfaatni ko‘zlab bu harakatni amalga oshirishi tushuniladi. Bunday darajaning quyidagi elementlari mavjud bo‘ladi:

ota-onaning savodhonligi;

ota-onaning ma‘naviy - ahloqiy madaniyati va uni yuzaga chiqishi;

oilaviy xayotda va bola tarbiyasida ota-ona tomonidan amal qilinidigan diniy va madaniy an‘analar va qadriyatlar;

oilaviy bo‘sh vaqtni tashkil etish madaniyati.

Insonning shahsiy qadriyatlari tuzilmasida ijtimoiy qadriyatlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, bunda insonning oilaviy qadriyatlari alohida o‘rin tutadi.

Oila faqatgina ijtimoiy qadriyatlarning manbai bo‘lib qolmasdan, balki ularni jamiyat a‘zolariga o‘tishini ta‘minlaydi. Oila ijtimoiy ob‘ekt sifatidaturmush o‘rtoqlik va ota-onalik munosabatlarini o‘z ichiga oladi va tarixiy rivojlanish jarayonida ma‘lum bir oilaviy qadriyatlarning avloddan avlodga o‘tishini ta‘minlaydi. Bu jaaryonda ijtimoiy qadriyatlar oila tomonidan shaxsiy, individual xarakter kasb etadi va oilaning doimiy hayot tarziga birikib ketadi.

Ma‘lum bir xalqning madaniy va demografik ko‘payishini hamda mustaqil jamiyat va davlat bo‘lishini ta‘minlovchi milliy qadriyatlarni, xususan, oila institutining mazmunini, oiladagi insonlarning o‘zaro aloqalarini, nikoh munosabatlarining ma‘suliyatini va oilaviy odobni individ tomonidan anglashi va ularga amal qilishi oilaviy ma‘naviy-ahloqiy qadriyatlarni belgilab beradi.

Oilaviy qadriyatlar keng ma‘noda oiladagi ijtimoiy-madaniy muhitdan kelib chiqib, bola tarbiyasi va uning rivojlanishining yakuniy maqsadi va mukammal ko‘rinishi hisoblanib, u bola tarbiyasining oldiga qo‘ygan maqsadlariga yetishish yo‘llari, katta yoshdagi avloddan kelajak avlodgamadaniyatning o‘tishi yehtiyojini o‘zida namoyon qiladi. Nisbatan qisqacha ko‘rinishda, oilaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, oilaviy an‘analar, urf-odatlar natijasida ishlab chiqilgan ahloqiy va estetik talablar. Ular bevosita oila a‘zolarining bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga ta‘sir qiladi. Oilaviy qadriyatlar ota-onalarning ijtimoiy-madaniy va ma‘naviy sifatlarida, ular tomonidan farzand tarbiyasi bo‘yicha qo‘yilgan maqsad va unga erishishning tanlagan yo‘lida katta ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy qadriyatlar – bu faqatgina avloddan avlodga o‘tib boruvchi urf-odatlar, an‘analargina emas, balki bu oila a‘zolarining birgalikda chekkan azob va xursandchiligi, totuvlik va muaommolari natijasida yuzaga kelgan tuyg‘ular hamdir.

Oilaviy qadriyatlarning ahamiyati bolada yoki yosh avlodda oilaning o‘rni, uning ahamiyati va o‘ziga xosligini anglashni ta’minlaydi. Bola aynan yaqin insonlari orasida o‘zining xissiyotlarini to‘g‘ri namoyon qilish, yaxshilik va sahiylik, o‘zaro xurmat, muhabbat, ishonch va halollik, o‘zining qilgan ishi uchun javobgarlikni o‘rganadi. Aynan oilada o‘zining oliy maqsadlariga, do‘stlariga va qarindoshlarga bo‘lgan sadoqat vatanga sodiqlik, muhabbat va sahiylik, mas’uliyat kabi sifatlar, nafaqat kattalarga, balki butun atrofdagi insonlarga yordam, o‘zaro xurmat munosabatlari shakllantiriladi. Oilada shakllangan oddiy qoidalar va ma’naviy poydevor keyinchalik jamiyatga ko‘chib o‘tadi. Ular insonning o‘zini tutishida, ta’lim-tarbiya muassasalarida, keyinchalik esa ishda va jamoat joylarida namoyon bo‘ladi. Qarindoshlik qadriyatlari insonning ahloqiy, kommunikativ, ijtimoiy va professional madaniyatini har tomonlama shakllantiradi.

Sotsiologlar tomonidan oilaning quyidagi turlari ajratiladi:

An’anaviy oila. Bunday oilada odatda bitta hududda bir nechta avlod vakillari (yosh oiladan tashqari, ota-ona, bobo-buvalar) istiqomat qilishadi. Bunda ayol kishi erkakka tobe bo‘ladi va barcha uy yumushlarini bajaradi. Oiladagi erkakning, oila boshining asosiy vazifasi oilaning moddiy farovonligini ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

Noan’anaviy oila. Tarixda uni ekspluatator oila ham deb atashgan. Bunday oilada ayol kishi erkak bilan bir xil daraja ishlaydi (Bu jarayon ayollarning jamoat ishlariga jalb etilishi va dastlabki feminizm oqimlari yuzaga kelgan davrdan boshlab paydo bo‘lgan). Ayollar o‘z ishlarini oilaviy yumushlar va bola tarbiyasi bilan birgalikda olib borishga majburlar.

Egalitar (teng) oila. Bu nikoh munosabatlarining zamonaviy shakli hisoblanadi. Bunda ayol va erkak ijtimoiy munosabatlarga teng darajada jalb etiladi. Bundan tashqari oilaviy yumushlar ham teng taqsimlanadi. Bunday oilalar (muhabbat, do‘stlik, mas’uliyat va o‘zaro xurmat) xissiyotlarga boy bo‘lishadi.

Oilaviy qadriyatlarni guruhlariga ajratishda, asosan, ularni 2 ta katta guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Klassik (an’anaviy) va progressiv (zamonaviy). Oilaning esa patriarxal, detomarkazlashgan va turmush o‘rtoqiga bog‘liq 3 ta asosiy modelga ajratsa bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda, oilaviy qadriyatlar tushunchasining aniq ta’rifi hozirgacha munozarali bo‘lib qolmoqda.

Ko‘pincha, oilaviy qadriyatlarni oila institutining saqlash maqsadida jamiyatda tan olingan diniy talablar va jamiyat qarashlari bilan jamiyat a’zolarining ma’lum bir davr davomidagi o‘zaro munosabatlari natijasi sifatida qaraladi.



Zamonaviy oilaviy qadriyatlar. Jamiyat, uning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi natijasida yangi (zamonaviy) oilaviy qadriyatlar paydo bo‘lmoqda. Ularning asosida hali hamon muhabbat, ishonch va o‘zaro yordam tuyg‘ular yotsa ham vaqt o‘gani sayin, har bir davr o‘zida biron bir yangi va zamonaviy qarashni olib chiqadi. Bu omillar insonlarda yangicha dunyoqarash va hayot tarzining shakllanishiga, shu jumladan, o‘zaro oilaviy munosabatlar sohasida hamta’sir ko‘rsatadi.

Endilikda ayollar faqatgina ona va uy bekasi vazifasini o‘tash bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. Ular erkaklar bilan bir qatorda biron - bir kasbda o‘zini ko‘rsatishmoqda, kar’era qilib, pul ishlab topmoqdalar. Oilaviy yumushlar esa o‘zaro hamjixatlikda teng bo‘linmoqda.

Odamlar shunchaki nikoh shartnomalari tuzib yoki rasmiy hujjatsiz birgalikda istiqomat qilishmoqda.

Nikoh tuzish yoshi oshmoqda, hayot tarzi jadallashmoqda va hayotning ma’nosi o‘zgarmoqda. Yoshlar barcha jabhada: ta’lim olish, ishlash, tajriba orttirish va oyoqqa turish, muvaffaqiyat qozonishga intilmoqda. Yuqorilagilarga erishgandan so‘nggina ular oila qurish haqida jiddiy o‘ylab ko‘rmoqda. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy oilaviy qadriyatlarni ota-onalar va farzandlar qadriyatlari kabi guruhlariga ajratuvchi qarash ham mavjud. Bu ikki guruhlar o‘zaro ko‘plab o‘xshashliklarga ega, ammo bizning farzandlarga tegishli qismi nisbatan qattiq va rivojlangan xarakterga ega. Bu o‘ziga xos spiralsimon va qaytariluvchi qonuniyat, har bir keyingi avlod o‘zidan oldinga avlodning faqat kerakli deb hisoblagan fazilatlarinigina olishi, o‘zining yashaydigan davrida dolzarb bo‘lgan oilaviy qadriyatlarni qo‘shishi sabablidoimiy ravishda ishlab keladi. Albatta, muxabbat, ishonch, xurmat, o‘zaro yordam, yaxshilik va tushunish kabi sifatlar hali ham zamonaviy oilaviy qadriyatlarning asosi bo‘lib qoladi, ammo ular hozirda jamiyatda uchrayotgan muammolar natijasida yuzaga kelayotgan turli omillar ta’sirida o‘zgarishga yuz tutmoqda. Shu tufayli, o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijasida yoshlar uchun oilaviy qadriyatlar kar’era qurish, ta’lim olish va do‘stlar hamda ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlardan keyingi o‘rinda turishi namoyon bo‘ldi. Oilaning hayotining eng muhim va ijobiy omili sifatida saqlanib qolishi uchun yoshi kattalar tomonidan o‘zining shaxsiy tajribasida oilaning jozibadorligini va ahamiyatini ko‘rsatish zarur.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 6-son. 70-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli, 2018 y.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamamasining “Oila” Respublika amaliy markazi tuzilishi to‘g‘risida”gi Qarori. T.:2 fevral 1998 y., № 54.

5. Асоров З. У., Султонбий Р. Содержание произведения Абу Али ибн Сина «Тадбири манзил» Вестник курган-тюбинского государственного университета имени носира хусрава номер: 4 (30) Год: 2014 С: 22-24

6. Азаров Ю.П. «Семейная педагогика. Воспитание ребенка в любви, свободе и творчестве. - М.: «Эксмо», 2015. - 496 с.

7. Azizxonov A.T., Yefimova A. P. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariya va amaliyot – T: Universitet, 2005.– 188 b.

8. Axmad Yugnakiy. Taqvodorlarning sovg‘alari. Ma’naviy ma’rifiy nashr. T., 1994. – 130 с.

9. Alijonova M. R. Bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarida milliy qadriyatlarga oid tushunchalarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Avtoref. dis. ... dokt. ped. fan. - Namangan, 2021. – 26 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oiladagi farzandlarning xar tomonlama rivojlanishini ta‘minlovchi oilaviy muhit, oilaning hayot tarzi, ma’naviy-amaliy faoliyatidagi imkoniyatlari kabi omillar va shartlarni o‘z ichiga oluvchi majmuasi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается комплекс факторов и условий, обеспечивающих всестороннее развитие детей в семе, таких как семейная среда, образ жизни семи, возможности духовной и практической деятельности.

SUMMARY

This article examines a complex of factors and conditions that ensure the comprehensive development of children in the family, such as the family environment, family lifestyle, opportunities for spiritual and practical activities.